SHAXS VA JAMIYAT MUNOSABATLARIDA SADOQATNING AKSIOLOGIK MOHIYATI

To‘laboyeva Shoira Abdulhamidovna
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.
ORCID - 0009-0006-6262-7249.

Annotatsiya:
Mazkur maqolada shaxs va jamiyat munosabatlarida sadoqatning aksiologik mohiyati ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Sadoqatning qadriyat sifatidagi mazmuni, uning shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar uyg‘unligini ta’minlashdagi o‘rni hamda jamiyat taraqqiyotidagi funksiyalari yoritiladi. Shuningdek, raqamli makonda sadoqat qadriyatining namoyon bo‘lish xususiyatlari va Yangi O‘zbekistonda sadoqat madaniyatini rivojlantirish istiqbollari tahlil etiladi. Tadqiqotda sadoqatning ijtimoiy barqarorlik, ma’naviy taraqqiyot va fuqarolik mas’uliyatini mustahkamlashdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *Sadoqat, aksiologiya, qadriyat, shaxs, jamiyat, ma’naviyat, fuqarolik, mas’uliyat, taraqqiyot, barqarorlik.*

KIRISH.

Sadoqat insoniyat ma’naviy hayotining eng muhim qadriyatlaridan biri bo‘lib, u shaxsning muayyan g‘oya, e’tiqod, burch, inson, jamoa yoki jamiyat manfaatlariga nisbatan barqaror va mas’uliyatli munosabatini ifodalaydi. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan sadoqat nafaqat axloqiy fazilat, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi, ijtimoiy hamjihatlik va insonlar o‘rtasidagi ishonch munosabatlarini ta’minlovchi muhim qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. Sadoqatning mazmunida vafodorlik, mas’uliyat, ishonch, burchga sodiqlik va ma’naviy qat’iyat kabi tushunchalar mujassam bo‘lgan. Sadoqat insonning ijtimoiy mavjudot sifatidagi tabiatidan kelib chiqadi. Inson jamiyatdan tashqarida yashay olmaydi va o‘z hayot faoliyatini turli ijtimoiy munosabatlar tizimi orqali amalga oshiradi. Ushbu munosabatlarning mustahkamligi esa, o‘zaro ishonch va sadoqatga bog‘liqdir. Agar jamiyat a’zolari o‘z majburiyatlari, qadriyatlari va mas’uliyatlariga sodiq bo‘lsalar, ijtimoiy tizimda barqarorlik va hamkorlik muhiti shakllanadi. Aksincha, sadoqatning zaiflashuvi ishonchsizlik, befarqlik va ijtimoiy inqirozlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Asosiy qism. “Sadoqat insonning ma’naviy kamoloti bilan chambarchas bog‘liq, u shaxsning ichki dunyosida shakllanadigan axloqiy prinsip bo‘lib, insonning o‘z e’tiqodi va qadriyatlariga qat’iy amal qilishida namoyon bo‘ladi. Sadoqat insonning maqsad va ideallariga sodiqligini ifodalovchi ma’naviy mezon sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Sadoqat shaxsning o‘zligini anglash, hayotiy pozitsiyasini belgilash va ijtimoiy mas’uliyatni his etishida muhim rol o‘ynaydi”[1]. Sadoqatning mazmuni ko‘p qirrali bo‘lib, u turli ijtimoiy munosabatlarda o‘ziga xos shakllarda namoyon bo‘ladi. Oilaviy munosabatlarda sadoqat oila a’zolarining bir-biriga nisbatan hurmat, mehr va mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lishini anglatadi. Kasbiy faoliyatda esa sadoqat o‘z mehnat vazifalarini vijdonan bajarish, tashkilot manfaatlarini himoya qilish va kasb etikasi talablariga rioya etishda namoyon bo‘ladi. Fuqarolik munosabatlarida sadoqat Vatanga,

milliy qadriyatlarga va qonunlarga hurmat bilan qarash, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishga intilish orqali ifodalanadi.

Ijtimoiy-falsafiy tahlilda sadoqat jamiyatning ma’naviy-axloqiy kapitali sifatida ham baholanadi. Chunki jamiyatda o‘zaro ishonch qanchalik yuqori bo‘lsa, hamkorlik va birdamlik darajasi ham shunchalik mustahkam bo‘ladi. Sadoqat ijtimoiy institutlar – oila, ta’lim, davlat va fuqarolik jamiyati faoliyatining samaradorligini oshiruvchi omillardan biridir. Zamonaviy dunyoda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida sadoqatning ahamiyati yanada ortdi, chunki axborot oqimlarining kuchayishi, globallashuv va individualistik tendensiyalarning kengayishi kabi hodisalar ayrim an’anaviy qadriyatlarning zaiflashuvi va yemirilishiga ham olib keldi. Bunday vaziyatda sadoqat jamiyatning ma’naviy yaxlitligini saqlab qoluvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Sadoqatning yana bir muhim jihati uning erkinlik bilan uzviy bog‘liqligidadir. “Haqiqiy sadoqat majburlash yoki tashqi bosim natijasida emas, balki insonning ongli tanlovi va ichki e’tiqodi asosida shakllanadi. Sadoqat erkin shaxsning axloqiy mas’uliyatini ifodalovchi fazilat hisoblanib, shaxs o‘z qadriyatlari va maqsadlarini erkin ravishda tanlagan holda ularga sodiq qolsa, uning sadoqati yanada mustahkam va barqaror bo‘ladi”[2]. Bugungi kunda sadoqat masalasi yoshlar tarbiyasi, milliy o‘zlikni anglash va ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash nuqtai nazaridan ham dolzarb ahamiyatga ega. Yosh avlodda Vatanga, oilaga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish jamiyatning kelajak taraqqiyoti uchun muhim omildir. Sadoqat insonni mas’uliyatli, vijdonli va maqsadga intiluvchan shaxs sifatida kamol toptirib, jamiyatda o‘zaro ishonch va hamjihatlik muhitining qaror topishiga xizmat qiladi.

Shaxsiy manfaat va ijtimoiy manfaatlar o‘rtasidagi munosabat har qanday jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy-axloqiy masalalaridan biri hisoblanadi. Inson tabiatan o‘z ehtiyojlari, manfaatlari va maqsadlarini ro‘yobga chiqarishga intiladi. Shu bilan birga, u jamiyatning ajralmas a’zosi sifatida umumiy manfaatlar, ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlar tizimi doirasida faoliyat yuritadi. Mazkur ikki manfaat turining uyg‘unlashuvi jamiyatda barqarorlik, hamjihatlik va taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi. Ana shunday murakkab munosabatlar tizimida sadoqat shaxsiy va ijtimoiy manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi muhim axloqiy hamda aksiologik omil sifatida namoyon bo‘ladi.

“Sadoqat insonning o‘z burchi, mas’uliyati, e’tiqodi va qadriyatlariga sodiq qolish qobiliyatini ifodalab, shaxsning o‘z manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiluvchi ma’naviy mezondir. Chunki inson o‘z hayot faoliyatini jamiyatdan ajralgan holda emas, balki turli ijtimoiy munosabatlar doirasida amalga oshiradi”[3]. Shaxsiy manfaatlarning mutlaq ustuvorligi ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqarsa, faqat ijtimoiy manfaatlarga tayanish esa shaxs erkinligi va tashabbuskorligini cheklashi ehtimoldan xoli emas. Sadoqat esa ushbu ikki qutb o‘rtasida muvozanatni ta’minlash imkonini beradi.

Sadoqatning asosiy vazifalaridan biri shaxsni o‘z manfaatlarini qonuniy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan maqbul shakllarda amalga oshirishga yo‘naltirishdir. Inson o‘z manfaatlarini ko‘zlar ekan, uning harakati boshqa insonlarning huquq va manfaatlariga zarar yetkazmasligi lozim. Sadoqat shaxsni nafaqat o‘z ehtiyojlari, balki jamiyat oldidagi

mas’uliyati haqida ham o‘ylashga undasa, manfaatlar qarama-qarshiligi emas, balki manfaatlar uyg‘unligi shakllanadi.

Shaxsiy manfaat va ijtimoiy manfaatlar mutanosibligida sadoqatning o‘rni, ayniqsa, fuqarolik mas’uliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Vatanga, xalq manfaatlariga va qonunlarga sadoqatli bo‘lgan inson o‘z shaxsiy maqsadlarini jamiyat taraqqiyoti bilan uyg‘unlashtirishga harakat qiladi. Bunday shaxs jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishiga faol hissa qo‘shadi. U o‘z manfaatlarini jamiyat manfaatlariga qarshi qo‘ymaydi, aksincha, ular o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashga intiladi. Sadoqatning mazkur jarayondagi ahamiyati mehnat faoliyatida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘z kasbiga, tashkilotiga va mehnat burchiga sodiq bo‘lgan inson nafaqat shaxsiy farovonlikka erishadi, balki umumiy ijtimoiy taraqqiyotga ham xizmat qiladi. Masalan, o‘qituvchining ta’lim sifatiga sadoqati, shifokorning kasbiy burchiga sodiqligi yoki davlat xizmatchisining halollik tamoyillariga amal qilishi jamiyat manfaatlari uchun muhim natijalar beradi. Bu esa sadoqatning manfaatlar mutanosibligini ta’minlovchi mexanizm sifatidagi rolini ko‘rsatadi.

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida shaxsiy manfaatlarning ustuvorligi kuchayib borayotganligi individualizm, iste’molchilik madaniyati va tezkor muvaffaqiyatga intilish ayrim hollarda ijtimoiy manfaatlarning ikkinchi darajaga tushib qolsa, jamiyatda ishonchsizlik, befarqlik va ijtimoiy mas’uliyatning pasayishi kabi holatlar yuzaga kelishi mumkin. Bunday vaziyatda sadoqat qadriyati insonni ma’naviy me’yorlarga amal qilishga, umumiy manfaatlarni qadrlashga va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishga undaydi. “Sadoqat zamonaviy jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Sadoqat manfaatlar mutanosibligini ta’minlashda faqat tashqi nazorat vositasi emas, balki insonning ichki e’tiqodi va axloqiy pozitsiyasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Agar insonda sadoqat hissi mustahkam shakllangan bo‘lsa, u qisqa muddatli manfaatlarni deb uzoq muddatli ijtimoiy qadriyatlardan voz kechmaydi”[4]. U halollik, adolat, mas’uliyat va burch kabi tamoyillarga amal qilishi, nafaqat shaxsning ma’naviy kamolotiga, balki jamiyatdagi ijtimoiy ishonch muhitining mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi. Shaxsiy manfaat va ijtimoiy manfaatlar uyg‘unligida sadoqatning o‘rni oilaviy munosabatlarda ham muhimdir. Oila a’zolarining bir-biriga sadoqati oilaning mustahkamligini ta’minlaydi, farzandlar tarbiyasida ijobiy muhit yaratadi va jamiyatning asosiy ijtimoiy institutini barqaror saqlaydi. Oiladagi sadoqat jamiyatdagi sadoqat madaniyatining shakllanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Aksiologik yondashuvda sadoqat jamiyat hayotining turli sohalarida qadriyatlarni shakllantirish, saqlash va avloddan avlodga uzatish vazifasini bajaruvchi muhim omil sifatida talqin etiladi. Jamiyat taraqqiyotida sadoqatning eng muhim aksiologik funksiyalaridan biri qadriyatlarni saqlash va davomiyligini ta’minlash funksiyasidir. Har bir jamiyat o‘zining tarixiy tajribasi, madaniy merosi va ma’naviy an’analariga ega bo‘ladi. Ushbu qadriyatlarning avlodlar o‘rtasida uzviy davom etishi jamiyatning ma’naviy barqarorligini ta’minlaydi. Sadoqat esa insonlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga undaydi.

Sadoqatning yana bir muhim aksiologik funksiyasi integrativ, ya’ni birlashtiruvchi funksiyadir. Jamiyat turli manfaatlar, qarashlar va ijtimoiy guruhlardan tashkil topgan

murakkab tizim hisoblanadi. Mazkur tizimning yaxlitligi va barqarorligi fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hamkorlik va birdamlikka bog‘liq. Sadoqat insonlarni umumiy maqsadlar va qadriyatlar atrofida birlashtiradi. Ayniqsa, Vatanga, milliy manfaatlarga va ijtimoiy taraqqiyot g‘oyalariga sadoqat jamiyatning ichki birligini mustahkamlaydi. Bu esa turli ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olish va umumiy taraqqiyot yo‘lida hamjihatlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Sadoqatning regulyativ funksiyasi ham jamiyat taraqqiyotida alohida ahamiyat kasb etadi. Regulyativ funksiya deganda inson xulq-atvori va ijtimoiy faoliyatini ma’naviy qadriyatlar asosida tartibga solish tushuniladi. Sadoqat insonning harakatlarini axloqiy me’yorlar bilan uyg‘unlashtiradi, uni mas’uliyatli va vijdonli faoliyatga yo‘naltiradi. Shaxs o‘z burchi va majburiyatlariga sodiq bo‘lsa, uning faoliyati jamiyat manfaatlariga mos keladi.

Jamiyat taraqqiyotida sadoqatning motivatsion funksiyasi ham muhim hisoblanib, insonning maqsad sari intilishi, qiyinchiliklarni yengib o‘tishi va o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni amalga oshirishida ichki rag‘batlantiruvchi omillar muhim rol o‘ynaydi. Sadoqat ana shunday ma’naviy rag‘batlantiruvchi kuchlardan biridir. O‘z kasbiga, ilm-fanga, Vatanga yoki muayyan g‘oyaga sadoqatli bo‘lgan inson faoliyatida qat’iyat va mas’uliyat namoyon bo‘ladi. Bunday insonlar jamiyatning ilmiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga katta hissa qo‘shadilar. Shu sababli sadoqat shaxsning ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiluvchi qadriyat sifatida ham ahamiyatlidir.

Sadoqatning tarbiyaviy funksiyasi ham aksiologik jihatdan muhimdir. Har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanday qadriyatlar asosida tarbiyalanishiga bog‘liq. Sadoqat yoshlarni Vatanga muhabbat, oilaga hurmat, mehnatsevarlik, halollik va mas’uliyat ruhida tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim va tarbiya jarayonida sadoqat qadriyatining shakllanishi yoshlarning ma’naviy immunitetini kuchaytiradi, ularni turli zararli g‘oyalar va ma’naviy tahdidlardan himoya qiladi.

Sadoqatning identifikatsion funksiyasi ham jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Inson o‘zini muayyan jamiyat, millat yoki madaniyat vakili sifatida anglash jarayonida ma’lum qadriyatlarga tayanadi. Sadoqat ushbu qadriyatlar bilan bog‘liqlik hissini kuchaytiradi va shaxsning ijtimoiy identifikatsiyasini shakllantiradi. Milliy qadriyatlarga, tarixiy merosga va Vatanga sadoqat insonning o‘zligini anglashiga yordam beradi. Bu esa milliy birlik va ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Globallashuv sharoitida sadoqatning himoyaviy funksiyasi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda axborot oqimlarining keskin ortishi, ommaviy madaniyatning keng tarqalishi va turli mafkuraviy ta’sirlarning kuchayishi natijasida milliy va ma’naviy qadriyatlarga tahdidlar yuzaga kelmoqda. Sadoqat insonlarni o‘z ma’naviy ildizlari va qadriyatlariga sodiq qolishga undaydi. Shu tariqa u ma’naviy xavfsizlikni ta’minlash va jamiyatning madaniy mustaqilligini saqlashga xizmat qiladi.

Sadoqatning yana bir muhim aksiologik funksiyasi ijtimoiy ishonchni shakllantirish, jamiyatdagi samarali hamkorlik va taraqqiyot insonlar o‘rtasidagi ishonch darajasiga bog‘liq. Sadoqatli insonlar o‘z va’dalariga, burchlariga va majburiyatlariga mas’uliyat bilan yondashadilar. Bu esa o‘zaro ishonch muhitini mustahkamlaydi. Ishonch mavjud

bo‘lgan jamiyatda iqtisodiy faoliyat, fuqarolik munosabatlari va davlat boshqaruvi samaraliroq rivojlanadi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri inson qadrini ulug‘lash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Ushbu maqsadlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi jamiyatda yuksak axloqiy qadriyatlar tizimini qaror toptirish bilan bevosita bog‘liq. Ana shunday qadriyatlar orasida sadoqat alohida o‘rin tutadi. “Sadoqat insonning Vatanga, jamiyatga, oilaga, kasbiga, ma’naviy ideallariga va milliy qadriyatlarga bo‘lgan vafodorligini ifodalovchi muhim aksiologik kategoriya hisoblanadi”[5]. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida sadoqat madaniyatini rivojlantirish Yangi O‘zbekistonning ma’naviy taraqqiyoti va barqaror rivojlanishining muhim omillaridan biridir.

Yangi O‘zbekistonda sadoqat madaniyatini rivojlantirish istiqbollarining eng muhim yo‘nalishlaridan biri ta’lim va tarbiya tizimini takomillashtirish bilan bog‘liq. Ta’lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi, balki ma’naviy qadriyatlarni shakllantiruvchi ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritishi lozim. Yosh avlodda Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat, kasbiy mas’uliyat va fuqarolik burchiga sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish orqali jamiyatning ma’naviy poydevori mustahkamlanadi. Shu ma’noda ta’lim dasturlarida ma’naviy-axloqiy tarbiya, milliy meros va umuminsoniy qadriyatlarga oid mavzularni yanada kengroq yoritish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sadoqat madaniyatini rivojlantirishning yana bir istiqbolli yo‘nalishi oila institutining ma’naviy salohiyatini kuchaytirish bilan bog‘liqdir. Oila insonning ilk ijtimoiylashuv maktabi bo‘lib, unda shakllangan qadriyatlar keyinchalik shaxsning butun hayotiga ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onalarning o‘zaro hurmati, mas’uliyati va sadoqati farzandlarda ham ushbu fazilatlarning rivojlanishiga zamin yaratadi. Shuning uchun oilalarda sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash va yoshlarni oilaviy mas’uliyat ruhida tarbiyalash sadoqat madaniyatining rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi ham sadoqat madaniyatini mustahkamlash uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlari, mahalla institutlari, yoshlar va xotin-qizlar tashkilotlari fuqarolarda ijtimoiy mas’uliyat, jamoatchilik faolligi va Vatan ravnaqiga daxldorlik hissini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Mazkur institutlarning faoliyatini yanada takomillashtirish fuqarolarning jamiyat oldidagi mas’uliyatini kuchaytiradi va sadoqat qadriyatining amaliy mazmunini boyitadi.

“Raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan bugungi davrda sadoqat madaniyatini axborot makonida mustahkamlash ham dolzarb vazifalardan biridir. Ijtimoiy tarmoqlar va internet platformalari yoshlar dunyoqarashining shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli makonda milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish, axborot madaniyatini rivojlantirish, yoshlarni media savodxonlikka o‘rgatish va ma’naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish zarur”[6]. Bu jarayonda sadoqat qadriyati insonning milliy o‘zligi, tarixiy xotirasi va ma’naviy merosiga sodiq qolishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Sadoqat madaniyatining rivojlanish istiqbollari davlat boshqaruvi tizimida ham muhim ahamiyatga ega. Davlat xizmatchilarining kasbiy burchiga, qonunlarga va xalq manfaatlariga sadoqati boshqaruv samaradorligining asosiy shartlaridan biridir. Halollik, adolat, mas’uliyat va vijdonlilik tamoyillariga asoslangan boshqaruv tizimi fuqarolarning davlat institutlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Bu esa jamiyatda sadoqat va ishonch madaniyatining yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

“Yangi O‘zbekiston sharoitida sadoqat madaniyatini rivojlantirishning muhim istiqbollaridan yana biri milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlashdir. Globallashuv jarayonlari insoniyatni umumiy taraqqiyot yo‘lida birlashtirayotgan bo‘lsa-da, har bir xalq o‘z milliy o‘zligini saqlab qolishi zarur”[7]. Shu bois yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash bilan bir qatorda, inson huquqlari, bag‘rikenglik, tinchliksevarlik va ijtimoiy hamkorlik kabi umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni ham shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Shuningdek, ilm-fan, madaniyat va san’at sohalarida sadoqat qadriyatini targ‘ib qilish ham istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. Adabiyot, kino, teatr va ommaviy axborot vositalari orqali sadoqatning ijobiy namunalari keng yoritilishi jamiyatda ushbu qadriyatning nufuzi va ta’sirini oshiradi. Ayniqsa, yoshlar ongida Vatanga, oilaga va kasbga sadoqat timsollarini shakllantirish ma’naviy tarbiyaning samaradorligini oshiradi.

- Ta’lim tizimida sadoqat qadriyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan maxsus ma’naviy-ma’rifiy dasturlarni keng joriy etish zarur. Bunda umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim muassasalarida sadoqatning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy mazmunini yorituvchi mashg‘ulotlar, davra suhbatlari hamda interaktiv loyihalarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.
- Oilada sadoqat madaniyatini mustahkamlashga qaratilgan targ‘ibot ishlarini kuchaytirish lozim. Ota-onalarning farzandlar tarbiyasidagi mas’uliyati, oilaviy qadriyatlarga hurmat va o‘zaro vafodorlik tamoyillarini rivojlantirish orqali yosh avlodda sadoqatning barqaror ma’naviy asoslarini shakllantiradi.
- Raqamli makonda sadoqat va mas’uliyat madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha media savodxonlik dasturlarini takomillashtirish tavsiya etiladi. Bu orqali yoshlarning axborotga tanqidiy yondashuvi, milliy qadriyatlarga hurmati va virtual muhitdagi axloqiy mas’uliyati kuchayadi.
- Fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida sadoqat qadriyatini targ‘ib etuvchi ijtimoiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash zarur. Mahalla, yoshlar tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlari orqali Vatanga, jamiyatga va milliy manfaatlarga sadoqat ruhini mustahkamlovchi tashabbuslarni kengaytirish ijtimoiy birdamlikni kuchaytiradi.
- Ilmiy tadqiqotlarda sadoqatning aksiologik, ijtimoiy-falsafiy va madaniy jihatlarini chuqur o‘rganishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida sadoqat qadriyatining yangi namoyon bo‘lish shakllari hamda uning yoshlar dunyoqarashiga ta’sirini kompleks tadqiq etish dolzarb ilmiy yo‘nalish sifatida rivojlantirilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, sadoqat shaxs va jamiyat munosabatlarini tartibga soluvchi, ularning o‘zaro uyg‘unligi va barqarorligini ta’minlovchi muhim aksiologik qadriyat

hisoblanadi. U insonning ma’naviy kamoloti, fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy faolligini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sadoqat shaxsiy manfaatlar bilan ijtimoiy manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlab, jamiyatda ishonch, hamjihatlik va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi. Raqamli transformatsiya va globallashuv sharoitida sadoqat qadriyatining mazmuni yangi ko‘rinishlarda namoyon bo‘layotgan bo‘lsa-da, uning ma’naviy ahamiyati saqlanib qolmoqda. Yangi O‘zbekistonda sadoqat madaniyatini rivojlantirish ta’lim, tarbiya, oila va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini takomillashtirish orqali ma’naviy taraqqiyotning muhim omiliga aylanishi mumkin. Shu bois sadoqat jamiyat rivojining muhim ma’naviy tayanchi sifatida e’tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Канке В.А. Этика ответственности. Теория морали будущего. – М.: Логос, 2003. –С.352.
2. Сидоренко Ю.И. Философия морали: новый подход. – Кострома: Изд-во Костромской ГСХА, 2005. –С.35.
3. Синицына Т.И. Профессиональная этика и служебный этикет: учебное пособие / Т.И. Синицына; Северо-Западный институт (филиал) Университета имени О. Е. Кутафина (МГЮА), Фонд развития филиала МГЮА имени О.Е. Кутафина в г. Вологде. – Вологда, 2022. – 162 с.
4. Tuychiyev Z.N. O‘zbekistonda ma’naviy barqarorlikni ta’minlashda so‘fiylikning o‘rni. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 1 | ISSUE 7 2021. – B.413.
5. Matchanova B.I. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning jamiyat ijtimoiy barqarorligidagi roli. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 4(10), Nov., 2024. – B.394.
6. Sayidov N.A., Burhanova Z.O. Raqamli texnologiyalarning jamiyat, ta’lim va madaniyatga ta’siri. / VI TRADITIONAL INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF THE PERSONALITY OF THE XXI CENTURY IN THE SYSTEM OF CONTINUOUS EDUCATION: PROBLEMS AND WAYS OF THEIR SOLUTION”, DECEMBER 3-4, 2024. – B.39-41.
7. Raximova G. Milliy madaniyatni rivojlantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning integratsion mezon va darajalari. In Ilm-fan. Vol. 3, Number 38, pp. 2025. – B.102.